

**UZBEKISTAN**

LANGUAGE & CULTURE

# **O'ZBEKİSTON: TIL VA MADANIYAT**

## **Adabiyotshunoslik**

**2023 Vol. 2 (2)**

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

**ISSN 2181-922X**

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT

## ADABIYOTSHUNOSLIK

2023 Vol. 2(2)

[www.literature.tsuull.uz](http://www.literature.tsuull.uz)

## MUNDARIJA

### **Abdulla Ulug'ov**

Xayriddin Sulton asarlarida hayot hodisalarining aks ettirilishi.....4

### **Oybarchin Abdulhakimova**

Shoir, she'r va so'z uchligining badiiy-estetik, liro-publitsistik  
talqinlari (Abdulla Oripov ijodi misolida).....25

### **Fanuza Adilova**

Xayriddin Sulton qissalarida milliy ruh va obrazlar  
poetikasi ("Ajoyib kunlarning birida" qissasi asosida).....37

### **Oybek Boyatov**

Mazjub Namangoniy asarlarining janr xususiyatlari.....47

### **Gavharoy Murodova**

"Majolis un-nafois"ning yettinchi majlisida zikr  
etilgan devon sohiblari.....63

### **Xidirova Farangiz**

Usmon Nosir ijodining o'rganilishi.....85

### **Ilihom Sayitqulov**

"Temurnoma"dagि obrazlar tavsifi va evolyutsiyasi.....98

### **Umarjon Qodirov**

"Alpomish" dostonining o'rganilishi.....117

## Shoir, she'r va so'z uchligining badiiy-estetik, liro-publitsistik talqinlari (Abdulla Oripov ijodi misolida)

Oybarchin Abdulhakimova<sup>1</sup>

### **Abstrakt**

Ushbu maqolada Abdulla Oripovning adabiy-estetik qarashlari falsafasi zamirida so'zning qimmati, she'rning ahamiyati, adabiyotning ma'naviy-tarbiyaviy vazifasi katta ahamiyat kasb etishi tahlil etildi. Shoir, she'r va so'z uchligi Abdulla Oripov adabiy-estetik qarashlarining asosini tashkil etishi, "Ehtyoj farzandl" maqolasida shoir ijodkor shakllanishining uch bosqichini ajratib ko'rsatishi, shoir, she'r va so'z uchligi bilan bog'liq fikrlari Abdulla Oripovning adabiy-estetik konsepsiysi yuksak talablarga asoslanganini ko'rsatishi barobarida, ijod ahlini o'z-o'zini taftish qilishga, ijodiy kamolot yo'lida muttasil izlanishga da'vat etishi jihatidan hech bir zamonda o'z ahamiyatini yo'qtmasligi yoritildi.

**Kalit so'zlar:** *shoir, she'r, so'z, adabiy-estetik mezon, konseptual fikrlar, ijodiy-intelektual, badiiy konteks, ijodiy niyat, kechinma, obrazlilik*

### **Kirish**

Shoir, she'r va so'z uchligi badiiy ijod jarayonining asos-mohiyatini tashkil etadigan tushunchalardir. Abdulla Oripov ushbu uchlikni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda idrok etgan. Uning uchun so'z - hamma narsa degani. "To'g'ri, odam bolasi adabiyotsiz ham o'lmay yashashi, aniqrog'i, kun kechirishi mumkin. Biroq bunday tirikchilikka havas qilib bo'larmikan?!" – deb yozadi shoir [Oripov 2013, 261]. Ma'lum bo'ladiki, ijodkor so'z san'atini tiriklikning mazmuni deb biladi. Adabiyotsiz hayotda ma'no ko'rmaydi. Ta'kidlash kerakki, Abdulla Oripov bu o'rinda ijodkorni emas, umuman, insonni nazarda tutgan. Modomiki, so'z san'ati bilan oshno bo'lish, uni idrok etish jamiyatning har bir a'zosi uchun shu qadar zarur

<sup>1</sup> Abdulhakimova Oybarchin Nurboy qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: abdulhakimovaoybarchin@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

**Iqtibos uchun:** Abdulhakimova, O. 2023. "Shoir, she'r va so'z uchligining, badiiy-estetik, liro-publitsistik talqinlari (Abdulla Oripov ijodi misolida)". *O'zbekiston: til va madaniyat. Adabiyotshunoslik* 2(2): 25-36.

ekan, shoir uchun hayot-mamot masalasiga aylanadi.

### **Asosiy qism**

Shoir, she'r va so'z birligining asosi nimada? So'z she'rga aylanar ekan, shoir nimalarga e'tibor qaratishi zarur? Abdulla Oripov fikricha: "Umr qisqa, uni tajribalar uchungina isrof qilib qo'ymaslik kerak. Adabiyotdagi muvaffaqiyatni faqat shakliy izlanishlarga ta'minlamaydi. Ular nechog'li zamonaviy va ilg'or bo'lmasin, she'rda ruh va mazmun muhimdir" [Oripov 2013, 211]. Bu fikrda shoirning so'z va she'rga munosabati, boshqacha aytganda, ijodkorning adabiy-estetik mezoni aks etgan. Shoir she'rga va uni tashkil etuychi har bir so'zga katta mas'uliyat bilan yondashmog'i zarur. Chunki uning ijod qilishi uchun belgilangan muddat o'lchovli va bu shoirning ixtiyoridan tashqaridagi voqelik. Shunday ekan, ijodiy umrni faqat shakliy izlanishlarga sarflash ma'qul emas. Abdulla Oripov naziddida: "...she'rda ruh va mazmun muhimdir". To'rt so'z va bir bog'lovchidan iborat ushbu fikr barcha davrlar ijodkorlari uchun adabiy-estetik mezon bo'la oladi. Abdulla Oripov she'riyati ana shu mezonga to'liq va mukammal javob bera oladi. Ushbu muxtasar va yuksak talabga javob bera oladigan shoir ko'pmi? Ana shu mezonga muvofiq kela oluvchi she'rlar qancha miqdorni tashkil etadi? Agar shu kabi savollar o'rta ga qo'yilsa, shoir, she'r va so'z uchligining nechog'lik bir-birini taqozo etishi, agar ulardan birortasi ishtirok etmasa, haqiqiy badiiyat namunasi yaratilishi mumkin emasligi ayon bo'ladi.

Ijodkorning shoir, she'r va so'z uchligiga doir konseptual fikrlari "Onajonim, she'riyat" sarlavhali she'rida, ayniqsa, mukammal aks etgan:

*Har qismatga har kimning  
Davroni sabab bo'lgay,  
She'r un cheksa shoirning  
Armoni sabab bo'lgay,  
Men faxr etsam, umrimning  
Har oni sabab bo'lgay,  
Eng olyi baxtim mening,  
Onajonim, she'riyat,  
Topgan toj-taxtim mening,  
Jonajonim, she'riyat.*

She'r so'zlardan tarkib topadi va shoirning "men"ini ifoda

etadi. Birorta she'r yo'qki, unda shoirning dunyoqarashi, adabiy-estetik mezonlari, ijodiy-intellektual darajasi aks etmagan bo'lisin. Yuksak iste'dod bilan yaratilgan she'rda shoir timsolida millatning orzu-umidlari, armon-hasratlari, yuksak ideallari tajassum topadi. "She'r un cheksa shoirning Armoni sabab bo'lgay" degan satr shundan dalolat beradi.

Abdulla Oripov yuksak iste'dod egasi bo'lishiga qaramay, she'r ustida, zarur bo'lsa, har bir so'z ustida tinimsiz zahmat chekkan ijodkordir. "Abdulla Oripov she'riyat bilan birga o'sdi, ulg'aydi. Xuddi tuyg'ulari kamol topib, cho'nglashib borgani kabi adabiyotga qarashi, uning masalalariga muayyan munosabati ham shakllanib bordi. Har bir odam o'ziga xos individual qobiliyat va intellekt sohibi. Lekin buning o'zi yetarli emas. Odam ma'lum sohada muayyan natijaga erishishi uchun, albatta, ilmiy va amaliy maktablarni o'tamog'i lozim" [Davlatova 2022, 16]

Shoir fikricha, haqiqiy ijodkor o'z-o'zini tanqid qilib turishi, so'zni isrof qilmasligi, she'rni muqaddas bilishi zarur. "Ehtiyoj farzandi" kitobiga kirgan "Ustozlar sabog'i" maqolasida: "Yosh shoirlarimiz o'z-o'zlarining iste'dod darajalarini bilishlari uchun ularga faqat buyuk salafarninggina emas, balki zamondosh ustozlarning ijodlari ham mezon bo'la oladi" degan fikrlari har bir yetishib chiqayotgan yosh ijodkorlar uchun birdek ahamiyatlidir. Shoir o'zi ham ijod jarayoniga kirib kelar ekan, ustozlari ijodini chuqur o'rganib, ulardan olgan bilimlaridan foydalangan holda ko'p va xo'b ijod qildi. Abdulla Oripov yoshlarning ijodi mavzu jihatdan salmoq dor bo'lishini, shakl jihatidan pishiq bo'lishini juda ham istaydi va shunday fikrlarni o'z maqolasida quyidagicha keltiradi: "Lekin shogird-shogird bo'lishi uchun ustozning san'atini egallagan, unga yangilik qo'shgan bo'lishi lozim-ku!" [Oripov 2011, 88]. Abdulla Oripov ustozlarining ijodini chuqur o'rgangan, ularning ijodidan ta'sirlangan o'rnlari bo'lsa-da, o'zining asarlari bilan adabiyotga o'zgacha ohang bo'lib kirib kela olgan shoirlardan biri.

Abdulla Oripov "Ehtiyoj farzandi" maqolasida: "Doimiy boyib boradigan bilim, mudom o'sib, yuksaladigan did va saviya, muntazam mehnat bo'lmasa, ijodkor zamon bilan barobar yurolmay, yana oqsab qoladi" [Oripov 2011, 22], degan fikrlarni bildiradi. Bu o'rinda tilga olingan bilim, did va saviya, muntazam mehnatdan murod aynan so'zni sevish, uni nozik his etish, yuksak darajada qadrlashdir. Chunki ijodkor so'z bilan ishlaydi. Uning iste'dodi darajasini ham, asarining badiiyat talablariga qanchalik javob berishini ham so'zga bo'lgan mas'uliyat belgilaydi. Abdulla Oripovning: "Ma'lum did va

saviyaga ega bo'limgan ijodkor adabiyotning bиринчи элементи bo'lmish tilning o'zidayoq kimligini bildirib qo'yadi", degan fikri ham buning isbotidir. Shoир asarlarining tili shu qadar mukammalki, she'rlariga biror so'zni qo'shish ham, biror jumlanı qisqartirish ham imkonsizdir.

She'r, shoир va so'z uchligining badiiy-estetik asosini Abdulla Oripov quyidagicha ifodalaydi: "She'rning ta'sirchanligini ta'minlaydigan komponentlarni sanab o'tirishning ham hojati yo'q. Bunga samimiylig ham, har bir so'zning yelkasiga mos kayfiyatlar, turfa xil ohanglari yuklay bilish ham, nihoyat, she'rning loyini nihoyasiga yetkazib qora bilish, ya'ni uni tugallangan, mukammal bir asarga aylanitira bilish san'ati ham kiradi" [Oripov 2001, 19]. Ayon bo'lyaptiki, ijodkor she'r yuksak talablarga javob berishi uchun so'z shoир ruhiyatini to'laqonli ifodalashi (*har bir so'zning yelkasiga mos kayfiyatlar yuklash*), har bir so'zga va shoир ruhiyatiga munosib ohangda jaranglashi (*turfa xil ohanglari yuklay bilish*), shoир, she'r va so'z bir vujudga aylanishi natijasi sifatida har bir so'z, har bir jumlanı tanlash ustida zahmat chekish (*she'rning loyini nihoyasiga yetkazib qora bilish*) zarur bo'ladi. Shundagina she'r tugallangan, mukammal asarga aylanadi va shoирга sharaf keltiradi. Ijodkor bu o'rinda shoир, she'r va so'z uchligining o'zaro nechog'lik aloqador ekani, biri ikkinchisisiz mavjud bo'la olmasligini mukammal ifodalagan.

She'riyat - inson ko'nglini yoritguvchi quyosh kabidir. U insonning hissiyotlarini, dardlarini, quvonch-u g'amlarini o'zida aks ettiradi. "She'r ko'pincha dard ifodasidir. U kamdan kam hollarda quvonchdan tug'iladi. She'r - qayg'uning o'z, quvonchning esa o'gay bolasi" [Yo'doshev 2018, 245]. Shoirlar she'riyat va badiiy so'zga doir qarashlari bilan bir-biridan farq qiladi. Abdulla Oripov insonning ko'nglini, uning tuyg'ularini erkin ifoda eta olgan shoirlardan edi. Abdulla Oripov she'rlarining mavzu ko'lami keng, asarlaridan qay bir mavzuni izlamang, unga tegishli she'r albatta topiladi. Bu haqida Qozoqboy Yo'doshev ham: "Abdulla Oripov o'zbek she'riyatni osmonida daf'atan mitti yulduzday charaqlab chiqdi, tor doirlarda siqla boshlagan milliy she'riyatimizga kenglik, toza nafas, dilgir navolar olib kirdi" [G'aniyev 2021, 59], deya shoир ijodini yuqori baholagan. Abdulla Oripovning she'riyatga doir maqolalari va albatta, ushbu mavzuga bag'ishlangan she'rlari ham talaygina. Bu yaratiqlar adabiyot rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Abdulla Oripov she'r va shoirlilikka oid o'ttizga yaqin she'rlar bitdi. Bu mavzuga doir fikr-mulohazalarini o'z maqolalarida yoritdi. Abdulla Oripovning "She'riyat" (1964), "Shoir" (1967), "Onajonim

"she'riyat" (1979), "Shoir" (2007), "Shoirning yaratilishi" (2008), "...She'r yozish tengdir" (2013) g'azali, "Ko'ngil mulki" (2013), "Shoir" (2015) nomli asarlari ayni shu mavzuga bag'ishlangan.

Abdulla Oripov "Ehtiyoj farzandi" maqolasida badiiy so'zga doir qarashlari aniq tasvirlanadi, bu maqolada shoir ijodkorning shakllanishini uch bosqichga ajratadi:

1) she'riyat – ko'ngil ishi, bu bosqichda shoirda samimiylilik, ya'ni bolalikning toza, beg'ubor, osuda, sho'xchan tuyg'ulari yuqori o'rinda turadi, deb hisoblaydi.

2) ikkinchi bosqichda endi inson va ijodkor shakllanadi – asli-da ijodkor shaxsning shakllanishi insoniyat uchun asrlar davomida odat tusiga kirgan an'anaviy qonun qoidalarga nisbatan birmuncha ayricha – o'ziga xosdir. Bunday shaxslarda hissiyot goho birinchi o'ringa chiqib ketadi, ammo endi shoirni bu bosqichda murakkab borliq o'rab oladi. A. Oripovning fikricha, shoirning qimmatini- chinakam hissiyot, samimiyyat, yuksak mahorat belgilab beradi.

3) mahoratni yetarlicha egallay olmagan qalamkash adabiyotda o'ralashib yurish yo'liga o'tadi. Unda mukofotlar bilan o'zini ovutish kabi san'atkorga nomunosib xatti-harakatlar ko'rina boshlaydi. Qusurini ko'rsatgan tanqidchilikka qarshi sintetik qilichini oqtaydi. Doimiy boyib boradigan bilim, mudom o'sib yuksaladigan did va saviya, muntazam mehnat bo'lmasa, ijodkor zamon bilan barobar yurolmay, yana oqsab qoladi, degan xulosalarga keladi.

Abdulla Oripovning ijodkor shakllanishidagi bu fikrlari adabiyotshunoslik uchun muhim fikrlar hisoblanadi. Chinakam ijodkorlarga ikki bosqichni go'zal tarzda bosib o'tadi. Abdulla Oripov "Ehtiyoj farzandi" asarida Gegel va Gyotening shunday fikrlarini keltiradi: "Gegel tabiat va jamiyat qonunlarini tushuntirish uchun triada (uchlik) terminini qollagan. Uning ta'kidlashicha, taraqqiyot uch bosqichni bosib o'tadi. Gyote bo'lsa, she'riyat ham ana shu bosqichdan o'tadi, degan. Uning triadiasi bosqichlari – soddalik, murakkablik va tag'in soddalik. Pushkin, Lermontov, Yesenin, Hamid Olimjon she'rлari ana shu so'nggi bosqichning mahsulidir, ular yaratgan she'rлari bir qarashda oddiy tuyuladi. Ammo bu jo'nlik zamirida katta hayotiy tajriba, umumlashma, teran mavzu, burch yotadi. Ayrimlar birinchi, ba'zilar esa ikkinchi bosqichda qolib ketadi, uchinchi bosqichga ko'tarilish – shoirning kamoloti, kuchli talantidan nishonadir. Shu so'nggi nuqtaga yetib olib ijod qilgan shoirlar juda-juda kam" [Oripov 1988, 107]. Aslida, Abdulla Oripovning o'zi ham shu shoirlar qatorida, uning she'rлarida ham katta hayotiy tajriba poydevor vazifasini o'tagan. Abdulla Oripov "dastlab tabiiy

ravishda bolalik, o'smirlilik shuurini egallagan xalq ijodiyoti asosida shakllangan ijodiy jarayon keyinchalik oliy ta'lim, hayotiy va ijodiy tajribalar natijasida kattalashib ulkan she'riyatga aylana bordi" [Davlatova 2022, 20].

Abdulla Oripov badiiy so'zni qo'llash mahorati nihoyatda keng. "Badiiy so'z qamrovi nihoyatda keng bo'lib, uning tarkibiga lug'at boyligimizdag'i barcha so'zlar, nutq jihatidan yondashilsa, tarixiy, ilmiy, shevaga aloqador, shuningdek, turli ijtimoiy tabaqa yoki qatlamga mansub so'zlar kiradi. Binobarin, har bir so'z ijodkorning his-tuyg'ularini, ideallarini hayotga munosabatini ifodalab, uning ijodiy niyatlariga xizmat qila oladigan tarzda tanlanib, badiiy kontekstsda qo'llanilgandagina badiiy so'zga aylanadi. Buning uchun badiiy asardagi so'z ijodkorning his-tuyg'ulari, kechinmalari bilan to'yangan va o'zgalarga ta'sir ko'rsatadigan bo'l'mog'i lozim" [Sarimsoqov 2004, 5]. Shu jihatdan Bahodir Sarimsoqov ta'biri bilan aytganda, Abdulla Oripov she'riyati his-tuyg'ular va kechinmalari bilan to'yangan she'riyatdir. Buni shoir she'riyatini o'qigan har bir o'quvchi aniq his eta oladi. Shoир har bir so'z ustida qattiq mehnat qiladi. Birgina so'zning ruhiyatiga va kayfiyatiga mos tushadigan eng ma'qul variantini tanlay biladi va shoirning tanlovi butun millatning tanloviga aylanadi. "Adabiyot, she'riyat obrazlilik bilan tirikdir. "Ey yor, men seni sevaman". Ana shu gapni Mirzo G'olib "Ey yor, os-tonang oldida yotgan toshni nima qilarding nariga surib qo'yib, axir, u mening peshonamga urilaverib, o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketardi-kul" deb berishida juda kuchli obrazlilik barq urib turibdi". Misol uchun, Abdulla Oripov ijodida qo'llangan "olomon" so'ziga e'tibor qarataylik. "Xalq", "el", "millat" kabi tushunchalar orasidan she'r uchun eng maqbul bo'lgan olomon so'zining tanlanishi shoirning so'z qo'llash mahorati g'oyatda ideal ekanligidan dalolat beradi. Hatto aytish joizki, "olomon" so'zini she'riyatga Abdulla Oripov olib kirdi. Undan keyin hech kim bu so'zdan uning kabi mahorat bilan foydalana olmadi, obrazli qilib aytganda, "olomon" so'zining qo'llanish "litsenziya"si faqat Abdulla Oripovga tegishli bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov ijodida uning so'z qo'llash mahorati falsafiylik va satirklikda o'ziga xos namoyon bo'ladi. Abdulla Oripov ijodining ilk lahzalaridan boshlab, shoirlik va she'rni a'mol sifatida anglar ekan, ulug' ne'mat mashaqqatini, mas'uliyatini unutmaslikni ulkan vazifa o'laroq qabul qildi. "Men - shoirman, istasangiz - shu" degan konseptual g'oyani ayta olish uchun ijodkor ham ruhan, ham ma'nani tayyor, iste'dodini his eta olish salohiyati, taqdir izmidan keta bilish jasorati yuksak bo'lishi darkor. Biz bu kabi fazilatlarni ijodkorning

ilk she'riaridayoq yaqqol ko'ramiz. "Shoirning tug'ilishi" deb nomlangan she'rda lirik qahramon o'ta darajada istayotgan, lekin qidirgani nima ekanligi mubham tuyg'ularga cho'madi.

*Kuylay dedim, kuylayin dedim,  
Kuylay dedim, ammo nimani?!  
Umr yo'lin o'ylayin dedim.  
Hislarimning qayda maskani?!*

Shoir izlayotgan eng tansiq narsa bu so'z, hislarining maskani esa she'riyat edi. Agar "Shoirning tug'ilishi" to'plamida nashr qilingan she'rlar to Abdulla Oripovning ilk to'plami "Mitti yulduz"ga qadar yozilganini e'tiborga oladigan bo'lsak, 17-20 yoshlar davrida bitilgani ma'lum bo'ladi. Shoirning adabiyotshunoslikda deyarli o'rganilmagan "She'rimga" asari ham ana shu yillarga oiddir.

*O'y-u fikrim sen bilan yashar,  
Sen bilandir shodligim, borim.  
Tikilganda ko'zim qamashar,  
Ey o'zimning she'rim – iqbolim.*

Lirik qahramon va shoir shaxsiyati ayni bir nuqtada birlashadi. Shu nuqtayi nazardan ham ushbu she'r avtopsixologik xarakterga ega. Mitti asardagi katta niyat, farah, umid bir umr shoir she'riyatining mayog'i vazifasini o'tagani rost. Shoир nainki shodlik, balki yo'g'u borini ham she'riyat deb bildi. Xuddi usta musavvir shoh asarini yaratib maftun bo'lgani kabi haykaltarosh mahobatli obrazi qoshida sururga to'lganidek, mo'jaz she'rlar shoir ko'zlariga cheksiz quvonch, yuragiga yoqimli epkin bag'ishlaydi. Asarning yakunida shoir niyatları, iqrorları yanada oydinlashib boradi. Agar "Shoirning tug'ilishi" she'rida izlayotgan narsasi neligini topa olmayotgan lirik qahramonni ko'rsak, bu asarga kelib, ijodkor bezovta qalbiga oromni aynan she'riyat olamidan topganini ochiq yozadi. Hayotining ma'nosi so'z, adabiyot, she'riyat bilan chambarchas bog'liqligini teran his etadi.

*Men hayotni senda tanidim,  
Sendan topdim qalbning oromin.  
Seni sevdim, Sevganim kabi  
Shu elimning yomg'irin, qorin.*

Abdulla Oripov uslubining, she'r yozish texnikasining

o'ziga xos jihat shundaki, qaysi mavzudagi asar bo'lmasin, joiz bo'lsa Vatan, xalqni ham she'r mazmuniga mahorat bilan singdira oladi. "Seni sevdim, Sevganim kabi" misrasida bir necha ma'nolarni anglash mumkin. Birinchidan, shoir she'riga murojaat qilar ekan, uni sevgilisi qadar sevishini yozsa, ikkinchidan esa she'ri unga elu yurtining har zarrasi qadar qadri ekanligiga nozik ishoralar bor.

Abdulla Oripovning ilk ijodidan o'r'in olgan yana bir she'r "Baxt" deb nomlangan bo'lib, shoirning asardan asarga, she'rdan she'rga niyatlari cho'nglashib, ulg'ayib borayotganini kuzatish mumkin:

*She'r yozaman, qalbim daryosi,  
Ilhom suvi bilan limmo-lim.  
Qaysin yozay...o'yga tolaman.  
Qahramonlar qurshovida jim...*

Endi u asarlari mazmuniga xalq idroki, orzu-umidi, serqirra hayot madhini olib kirishni baxt deb biladi.

Abdulla Oripovning "She'r va shoirlar" to'g'risidagi yana bir asari "G'am-anduhdan yiroq turgin" deb nomlangan.

*Hoy, sen hayot shov-shuv, bemazmun,  
Toptading-ku sodda idrokni.  
Yig'la, she'rim yupatolmassan  
Shoiringni, mangu g'amnokni.*

Asarda lirik qahramon kechinmalari yolg'izlik, alam, ko'z yosh, yorug'lik va saodatning tanqisligi motivlari bilan uyg'un keladi. Ijodkor o'z davrining chinakam hodisasi edi, shuning uchun ijodning tonggida uni to'laqonli anglovchilar, fikrlari, hatti-harakatlarini daho iste'dod o'laroq baholay oladiganlar sanoqli edi. Shuning uchun shoirda yuqoridagi kabi yolg'izlanish kayfiyati paydo bo'laveradi, yagona najot qal'asi sifatida "Onajon she'riyat" bag'ridan orom topaveradi. "Javob" she'rida esa yana so'zning abadiyligi, ijodning boqiyligini tarannum etadi. She'r mazmuni qisqacha shunday: lirik qahramon ijodxonasiga kirsa, shamollar qo'lyozmalarini har yonga sochib yuboribdi, uchirib ketibdi. Shoir shamolga yuzlanar ekan, "sen-ku qog'ozlarni uchiribsan xolos, lekin har qancha urinma undagi biror satrni joyidan ko'chirolmaysan", deydi.

*Ko'zimdan nur ketsa, yillar shamoli.  
Uchirib ketsalar kipriklarimni..  
Yo'q, yo'q! Ezgu ishning yo'qdir maloli,  
She'rim! Senga berdim tirik borimni.*

Shoir bir inson sifatida umrning o'tkinchiligini inkor etmaydi, kun kelib, beshafqat yillarning shamoli undagi kipriklar qadar tiriklikni ham uchirib ketishini yaxshi his etadi. Lekin she'rdagi finalning mantiqiy xulosasi, lirik qahramonning yaxshi umidi shundaki, u hali hayotligidayoq o'zini, o'zligini, "men"ini she'rlariga singdira borishidadir. Shuning uchun ijodkor o'tkinchi yillardan qo'rqlaydi, chunki uning borlig'i she'riyatiga jo bo'lgan. Abdulla Oripov dahosining buyukligi ham shunda, to odamzod bor ekan adabiyotga, she'riyatga ehtiyoj sezaveradi. Bunda esa Abdulla Oripov kabi har nafasda uyg'oq ijodkorlarning adabiy merosi ruhiy quvvat berishi tayin.

"Abdulla Oripov lirkasida hazrat Navoiyga ma'nani izdoshlikka misol bo'ladigan bu kabi jihatlar, misralar ko'plab topiladi. Masalan, o'zbek mumtoz adabiyotida, jumladan Alisher Navoiy ijodida so'zni ulug'lash, so'zning qudrati va ta'sir kuchi, ilohiyligi borasida islam falsafasi bilan sug'orilgan qarashlar mavjud. "Xamsa" dostonlarining muqaddimasida so'z ta'rifiga maxsus alohida boblar ajratilgan. Mutafakkir shoir Qur'oni Karim va Hadisi sharifga tayanib, olam va odamning bunyod bo'lishida **SO'Z** vosita bo'lganini badiiy ifoda etadi" [Davlatova 2022, 34]. Mumtoz ijodkorlar kabi Abdulla Oripov ham so'z haqida fikr bildirar ekan, uni ilohiydan kelgan mujda deb biladi. So'zga ta'rif berib, uni payg'ambar deb ataydi. Bir qaraganda, o'quvchida o'zgacha taassurot qoldirishi mumkin. Negaki payg'ambarlar tarixi, anbiyolar haqidagi manbalarda asosan insonlar nazarda tutiladi. To'g'ri, lekin Abdulla Oripov she'rda mantiqiy fikrlash yo'lidan boradi. Olamda faqatgina U va so'z bor edi, degan hikmatlar mavjud. Shunday ekan, Yaratganning ilk payg'ambari nega SO'Z bo'lmasin?!

So'z asli payg'ambar,  
U bois balki  
Odamzod tanigan o'z Xudoyini.  
Erigan temirning tomchisi kabi  
O'rtab yuborar u tekkan joyini.

"Men shoir she'rlarining eng muhim jihat - zabtkorligi ularda teran idrokdan tug'ilgan mungning beqiyos badiiyat bilan ifodalanganida deb bilaman. Chiltor qillariday taralayotgan yomg'ir, xayolday yorishgan osmon, o'chgan xotiralar chirog'ini yoqqan bahor, shamol shovillayotgan qadim bog'lar, adir ortidagi yolg'izoyoq yo'l, avgustning xazonli oqshomi, oqshom tumanida to'ngan

yulduzlar – bularning bari ulug'vor olamning sirli go'zalligi, cheksiz romantikasi bilan inson umrining foniyligidan tug'iladigan mungni mislsiz uyg'unlikni mujassamlashtirgan" [Afoqova 2005, 19]. Shoир she'rлaridagi butunlikning asl sababi ham so'zga mas'uliyatning hosilasidir. So'zning moddiy quvvatga egaligi ham fanda allaqachon o'z isbotini topgan. Qaynoq haroratda suvday erib oqqan temirning bir tomchisi ham har qanday metinni teshib yuborganidek, yomon so'z jarohatga, yaxshisi esa qanoatga sabab bo'lishi tabiiy. Lekin shoир zamonning zayli, turli qorishiq madaniyatlardan paydo bo'layotgan "qadriyatlar" dan ba'zan xavotirga tushadi. So'z va she'rni ilohiy deb bilgan, tom-tom kitoblarni bag'riga bosib yod olgan avlod o'rnini biroz boshqacharoq avlodlar egallay boshladi. Abdulla Oripov davrining uyg'oq ijodkori sifatida o'tmis va bugunni taqqoslaydi. Xuddi o'zining joniga achingani, o'z taqdiriga kuyungani singari asarlari kelajagiga ham befarq qaray olmaydi. Aytayotgan, aytgan so'zlari turli iqtisodiy masalalar, ijtimoiy tarmoqlaru gadjetlar bilan to'lgan avlod qalbidan nechog'lik o'rinni olishini tasavvur qiladi.

*She'rim, aytgan so'zim, ba hukmi zamon,  
Tarqalib ketdilar hammasi har yon,  
Qalblarda tinch-totuv yasharmi ular,  
Bozor iqtisodi bilan yonma-yon.*

### Xulosa

Abdulla Oripovning adabiy-estetik qarashlari, falsafasi zamirida so'zning qimmati, she'rning ahamiyati, adabiyotning ma'naviy-tarbiyaviy vazifasi muammosi doimo dolzarb bo'lган. Dastlabki she'riy mashqlaridan tortib, to'rtliklari, dostonlari, balladalari, g'azallarida yuksak badiiyat, adabiyot va she'riyat oldidagi mas'uliyat, ijodkorlik pozitsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham shoир she'rлari o'zbekning o'zligi, millatning vijdoni sifatida ruhiy tarbiyaga xizmat qilaveradi.

### Adabiyotlar

- Афоқова, Нодира. 2005. Оламни англаш саодати. Тошкент  
 Орипов, Абдулла. 2019. Танланган асарлар. Тошкент.  
 Орипов, Абдулла. 2021. Шоирнинг туғилиши. Toshkent.  
 Орипов, Абдулла. 1988. Эҳтиёж фарзанди. Тошкент.  
 Давлатова, Адиба. Абдулла Орипов шеъриятида поэтик тафаккур тадрижи. Филол. фан. док-ри... дисс. 2022. Тошкент.  
 Исҳоқов, Ёқубжон. 2014. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент.  
 Саримсоқов, Баҳодир. 2004. Бадийлик асослари ва мезонлари. Тил

ва адабиёт институти. Тошкент.

Йўлдош, Қозоқбай. 2018. Сўз ёлқини. Тошкент.

Jabborov, N. A., & qizi Ikromova, N. H. (2021). ABDULLA ORIPOVNING "HIKMAT SADOLARI" TURKUM SHE'RLARIDA PAYGAMBAR OBRAZINING IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 2(2), 279-283.

Ғаниев, Илҳом. Афоқова, Нодира. 2021. Абдулла Ориф фалсафаси. Тошкент.

## Artistic-aesthetic, lyrical-publicist of the three poets, poems and words interpretations (as an example of Abdulla Oripov's work)

Oybarchin Abdulhakimova<sup>1</sup>

### Abstract

In this article, it was analyzed that the value of the word, the importance of poetry and the spiritual and educational function of literature are of great importance in the basis of the philosophy of Abdulla Arifov's literary and aesthetic views. The trinity of poet, poem and words forms the basis of Abdulla Arifov's literary-aesthetic views, in this article "Ehtiyoj farzandi" he distinguishes three stages of the poet's creative formation, his thoughts on the trinity of poet, poem and words show that Abdulla Arifov's literary-aesthetic concept is based on high requirements. It was highlighted that it does not lose its importance in any age in terms of calling people of creativity to self-examination and constant search for creative perfection.

**Key words:** poet, poem, word, literary-aesthetic criterion, conceptual thoughts, creative-intellectual, artistic context, creative intention, experience, imagery.

### References

- Afоqova, Nodira. 2005. *Olamni anglash saodati*. Toshkent.  
Oripov, Abdulla. 2019. *Tanlangan asarlar*. Toshkent.  
Oripov, Abdulla. 2021. Shoirning tug'ilishi. Toshkent.  
Oripov, Abdulla. 1988. Ehtiyoj farzandi. Toshkent.  
Davlatova, Adiba. Abdulla Oripov she'riyatida poetik tafakkur tadriji. Filol.

<sup>1</sup>Abdulkhakimova, Oybarchin – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abdulhakimovaoybarchin@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

For citation: Abdulkhakimova, O. 2023. "Artistic-aesthetic, lyrical-publicist of the three poets, poems and words interpretations". *Uzbekistan: Language and Culture. Literature* 2(2): 25-36.